



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMANI HOKIMI

A.A.Maxmudov
I.B.Xushvaqtov
O.S.Fozilov
A.F.Xatamov
X.M.Dadabayev

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori ma'lumot va
ijro uchun qabul qilinsin.

№1/1-529

2025-yil 23-dekabr



X.I.Inogamov

Tuman hokimi



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QARORI

“Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglaridagi ijtimoiy masalalarni hal etishdagi tashabbuskorligini kuchaytirish, tashabbusli byudjet loyihalarini aholi va davlat o‘rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish tartibini joriy qilish va ayrim masalalar bo‘yicha tashabbusli byudjet jarayonlarini soddalashtirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-avgustdagi PQ–264-sonli va 2025-yil 28-noyabrdagi PQ–364-sonli qarorlariga asosan :

tegishli saylov okrugida tashabbusli budget jarayonlari doirasida g‘olib bo‘lmagan loyihalar orasidan har mavsumda bitta loyihani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati tanloviga asosan, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni aholi va davlat o‘rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyoti joriy etilganligi;

“Eng yaxshi soliq to‘lovchi mahalla” nominatsiyasi g‘oliblari uchun tashabbusli budget jarayonlari doirasida loyiha kiritish imkoniyati cheklanmasligi hamda sheriklik asosida moliyalashtirishda loyiha qiymatining 75 foizi Davlat budjetidan moliyalashtirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666–IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

Yangihayot tuman hokimiyati	Toshkent shahar hokimligi	
K/R: 1/1-529	K/R: 32/49	2025-yil 23 -dekabr
		2025-yil 23 -dekabr

3. Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sheriklik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, tashabbusli budget jarayonlari doirasida loyihalar ovoz berish bosqichiga o'tkazilishidan avval:

tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi;

ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimi bo'yicha "O'zsuvta'minot" AJ loyihani amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligi yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga xulosalar taqdim etadi.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qaror bilan tashabbusli budget jarayonlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni aholiga yetkazish bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

6. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi E. Gadoyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining Raisi**



T. Narbayeva

Toshkent shahri,
2025-yil 17-dekabr,
KQ-280-V-sonli.

“Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 2-band quyidagi mazmundagi **o'n ikkinchi xatboshi** bilan to'ldirilsin:

“**deputat tashabbusi loyihasi** - Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tanloviga ko'ra qo'shimcha ravishda g'olib deb topilgan loyihalar”;

2) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Har bir tuman va shahar bo'yicha Iqtisodiyot va moliya organlaridan Tashabbusli budget masalalariga mas'ul etib biriktirilgan xodimlar Ishchi komissiyaning ishchi organi (keyingi o'rinlarda – ishchi organ) hisoblanadi. Ishchi organ Portalda o'ziga biriktirilgan vakolatlardan elektron raqamli kalit orqali foydalanadi”;

3) 6-bandning

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tuman (shahar)lar budgetlarida Tashabbusli budget jarayoni uchun rejalashtirilgan mablag'lar. Bunda, har yili tuman va shahar budgetida tegishli moliya yilida ishtirok etadigan mahallalar sonidan kelib chiqib (tanaffusga tushgan mahallalar mustasno), qoida tariqasida 6 tadan kam bo'lmagan, ko'pi bilan 30 ta loyiha uchun yetarli mablag'lar rejalashtiriladi”;

quyidagi mazmundagi **beshinch xatboshi** bilan to'ldirilsin:

“aholi va davlat o'rtasida sherikchilik asosida loyihalarni moliyalashtirish maqsadida fuqarolarning ihtiyoriy ravishda yo'naltirgan mablag'lari”;

beshinch xatboshi tegishincha **oltinch xatboshi** deb hisoblansin;

4) quyidagi mazmundagi 6¹-band bilan to'ldirilsin:

“6¹. Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi “Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risida nizom”ga muvofiq belgilanadi.”

5) 8-bandning beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishli moliya yilining 1-yanvar holatiga qayd etilgan aholi va mahallalar sonidan kelib chiqib, har chorak (yil) yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foiz qismini teng taqsimlagan holda tuman (shahar) jamg‘armalariga yo‘naltirish bo‘yicha takliflarni tasdiqlash uchun tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga kiritadi”;

6) 9-bandning beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tashabbusli budjet jarayoni uchun **hukumat qarorlari yoki boshqa hujjatlar asosida** qo‘shimcha mablag‘lar ajratilganda — bir hafta muddatda (agar hujjatda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa) qo‘shimcha tarzda g‘olib deb e‘lon qilingan loyihalar uchun ochilgan hisob raqamlariga o‘tkaziladi”;

7) 11-band quyidagi mazmundagi **ikkinchi xatboshi** bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro Byurosi va boshqa undiruvchi organlar tomonidan tuman/shahar hokimliklari huzuridagi fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga sud va boshqa organlar ijro hujjatlariga asosan undiruvlar qo‘llash taqiqlanadi.”

8) 12-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. G‘olib loyihada nazarda tutilgan tadbirlar to‘liq amalga oshirilib, loyiha foydalanishga qabul qilib olingandan so‘ng ushbu loyiha uchun ochilgan hisob raqamidagi qoldiq mablag‘lar (kafolat mablag‘lari bundan mustasno) tejalgan mablag‘ hisoblanadi”;

9) 16-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Vakolatli organ mavsum boshlanishidan kamida yigirma kun avval rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalari orqali:”;

10) 17-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Har bir mavsum qoida tariqasida quyidagi bosqichlarda va muddatlarda o‘tkaziladi:

fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish bosqichi – 20 kun;

ishchi komissiya tomonidan loyihalarni saralab olish bosqichi – 20 kun;

targ‘ibot bosqichi – 7 kun;

ovoz berish bosqichi – 10 kun.

qo‘shimcha ravishda g‘olib loyihalarni aniqlash – 10 kun.

Bosqichlarning davomiyligiga vakolatli organ tomonidan har bir mavsumning o‘ziga xosligidan hamda texnologik shartlarni inobatga olgan holda aniqlik kiritilishi mumkin”;

11) 19-band quyidagi mazmundagi **uchinchi** va **to'rtinchi xatboshi** bilan to'ldirilsin:

“Quyidagilarga tashabbusli budget doirasida ketma-ket ikki marotaba g'olib deb topilgani munosabati bilan loyiha kiritish imkoniyatini cheklash qoidasi qo'llanmaydi:

mahalla soni 15 va undan kam bo'lgan tuman va shaharlardagi barcha mahallalarga;

“Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla” sifatida TOP-100 talik ro'yxatga kirgan mahallalarga;

aholi va davlat o'rtasida sheriklik asosida moliyalashtiriladigan loyihalarga.

Bunda, loyiha kiritish imkoniyati cheklangan mahallalarga istisno tariqasida sherikchilik asosida loyihalarni ilgari surishga ruxsat etiladi”;

12) quyidagi mazmundagi **19¹-band** bilan to'ldirilsin:

“Agar yil davomida loyiha kiritish imkoniyati cheklangan mahallalar boshqa mahallalar bilan birlashtirilsa, loyiha kiritish bo'yicha cheklov birlashish natijasida hosil bo'lgan (yoki yangi tashkil etilgan) mahalla uchun tegishli davr mobaynida amal qiladi.

Agar tanaffusga tushgan mahalla hududida yangi mahalla tashkil etilsa (mahalla hududi bo'linsa), ushbu hudud bo'yicha so'nggi ikki mavsumda g'olib bo'lgan loyihalar qaysi mahalla hududiga tegishli bo'lsa ushbu mahallaga nisbatan tanaffus saqlab qolinadi.”;

13) 22-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Loyihalarni amalga oshirish turiga ko'ra qurilish-ta'mirlash yoki jihozlash yo'nalishlari bo'yicha ilgari surilishi mumkin. Bir loyiha tarkibida ikki xil turdagi tadbirlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Jihozlash bo'yicha xarid qilinishi ruxsat etilgan tovar (xizmat)lar ro'yxati vakolatli organ tomonidan tegishli vazirliklar bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Bunda, ruxsat etilgan tovar (xizmat)lar ro'yxati tegishli vazirliklar tomonidan har mavsum boshlanishidan kamida o'n kun avval vakolatli organga taqdim etilishi lozim. Ro'yxat taqdim etilmagan hollarda tegishli soha bo'yicha jihozlash loyihalarini shakllantirish imkoniyati cheklanadi.”;

14) 23-bandning

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“loyihada aks etgan muammo/tadbir tegishli tuman (shahar) hududiga tegishli bo'lishi (ma'lum bir tuman(shahar)ga tegishli bo'lgan (ro'yxatdan o'tgan) ammo joylashuvi bo'yicha boshqa tuman (shahar) hududida joylashgan tashkilotlar bundan mustasno);”

beshinch xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar idoraviy yoki shaxsiy xususiyatga ega bo‘lmasligi (barcha turdagi avtomashinalar, turar joy, bino-inshootlarni xarid qilish, ma’muriy binolarni ta’mirlash);”

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida faoliyat yuritmasligi va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlamasligi;”

o‘ninchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“loyihani amalga oshirishning umumiy qiymati qurilish-ta’mirlash loyihalari bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt ming, jihozlash loyihalari bo‘yicha ikki ming barobaridan oshmasligi lozim.”;

15) 25-bandning ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunda kelib tushgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan buyurtmachilarga saralash bosqichining dastlabki kunidan kechiktirilmasdan yuborilishi ta’minlanadi.”;

16) 26-banddagi “Namunaviy” degan so‘zi chiqarib tashlansin;

17) 27-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“27. Buyurtmachilar tomonidan loyihalar qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan loyihalarni ko‘rib chiqadi.

Bunda, buyurtmachilar belgilangan mezonlarga muvofiq loyihalarni qabul qilish yoki me’zonga zid loyihalarni asoslantirilgan holda rad etish yuzasidan ishchi komissiyaga xulosa taqdim etadi. Taqdim etilgan xulosada qabul qilingan loyihalarning xisob-kitoblar asosida dastlabki qiymati ko‘rsatilishi shart.

Umumta’lim maktablari hamda maktabgacha ta’lim muassasalari bo‘yicha loyihalarning dastlabki qiymatiga istisno tariqasida tegishincha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining tegishli bo‘linmalar tomonidan aniqlik kiritiladi. Bunda, tegishli bo‘linmalar loyihani amalga oshirish bo‘yicha dastlabki texnik smetani Ishchi komissiyaga taqdim etishi shart.”;

18) 28-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. Loyihalarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘ning dastlabki qiymati tegishliligiga ko‘ra buyurtmachilar xulosasi **yoki tegishli bo‘linmalar**ning xisob-kitoblari asosida Ishchi organ tomonidan Portalga kiritiladi.”;

19) 29-bandning ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur qaror asosida Ishchi organ Portalda rad etiladigan va ovoz berishga o‘tkaziladigan loyihalar ro‘yxatini shakllantiradi hamda mas’ul hodimlar tomonidan elektron kalit orqali ushbu ro‘yxat tasdiqlanadi”;

20) 37-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Har bir tuman (shahar)da loyihalar g‘olib deb topilishi uchun 50 tadan kam bo‘lmagan ovozlariga ega bo‘lishi lozim”;

21) 38-band quyidagi mazmundagi **oltinchi xatboshi** bilan to‘ldirilsin:

“Agar ovoz berish bosqichi yakunlariga ko‘ra, ayrim loyihalar teng ovoz to‘plagan bo‘lsa g‘oliblarni aniqlashda ushbu loyihalardan mazkur ovozni Portalda birinchi bo‘lib qayd etgan loyiha tanlab olinadi.”;

22) 38¹-bandning

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ovoz berish jarayoni davomida fuqarolar tomonidan loyihalarga majburiy ovoz to‘plashga jalb etilishi yuzasidan shikoyatlar kelib tushsa, vakolatli organ tomonidan mazkur holatga aniqlik kiritish yuzasidan mehnat munosabatlari bo‘yicha vakolatli tashkilotga so‘rov yuboriladi.”;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Agar holat o‘z tasdig‘ini topsa majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni ovoz berish bosqichidan chetlatish yoki g‘oliblar ro‘yxatidan chiqarish bo‘yicha vakolatli organ tomonidan tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashiga taqdimnoma yuboriladi.”;

23) 40-bandning

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“G‘oliblar aniqlanganidan so‘ng Jamg‘armada shakllangan qoldiq mablag‘lar qo‘shimcha g‘olib loyihalarni aniqlashga, g‘olib deb topilgan loyihalarning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan qo‘shimcha talab etiladigan farqni qoplashga yoki kelgusida o‘tkaziladigan tashabbusli budget jarayonlariga yo‘naltiriladi.”;

ikkinchi va uchinchi xatboshilari chiqarib tashlansin;

24) quyidagi mazmundagi 40¹-band bilan to‘ldirilsin:

“40¹. Ovoz berish bosqichi yakunlangandan so‘ng g‘olib bo‘lmagan loyihalar orasidan qo‘shimcha ravishda g‘olib loyihalarni aniqlash bosqichi o‘tkaziladi. Ushbu bosqich ovoz berish jarayoni yakunlangan kundan boshlab o‘n kun davomida o‘tkaziladi.

Qo‘shimcha g‘olib loyihalar quyidagi usulda aniqlanishi mumkin:

xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan Jamg‘armaga qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltirish orqali;

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputatlari tomonidan tegishli saylov okruglaridagi loyihalardan birini Portalda tanlash orqali.”;

25) quyidagi mazmundagi **40²-band** bilan to'ldirilsin:

"40². Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga mahalliy budjetning qo'shimcha mablag'lari yoki iqtisod qilinib Jamg'armaga qaytarilgan mablag'lar hisobidan keyingi o'rinlardagi loyihalarni (ushbu loyihalarga yetmagan mablag'ni to'liq ajratgan holda) qo'shimcha tarzda g'olib deb e'lon qilish vakolati beriladi.

Bunda, tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari Jamg'armaga mablag'lar o'tkazilganligi hamda qo'shimcha g'oliblarni aniqlash yuzasidan vakolatli organga ovoz berish jarayoni yakunlangan kundan boshlab 10 kun ichida so'rov yuborishi lozim.";

26) quyidagi mazmundagi **40³-band** bilan to'ldirilsin:

"40³. Qo'shimcha g'olib loyihalarni aniqlash bosqichi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlariga tegishli saylov okruglarida g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan bitta loyihani deputat tashabbusi loyihasi sifatida qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilish vakolati beriladi.

Deputatlar saylovchilarning manfaatlarini inobatga olgan holda o'zlarining Portaldagi shaxsiy saxifalari orqali loyihalardan birini tanlaydi hamda ushbu loyihalar Portalda g'olib loyihalar ro'yxatiga kiritiladi.

Deputatlar tomonidan tanlangan loyihalar O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan moliyalashtiriladi. Bunda, ushbu loyihalar uchun mablag'lar tegishli tuman (shahar) Jamg'armalariga o'tkazib beriladi.

Portalda deputat tashabbusi asosida moliyalashtiriladigan loyihalar uchun alohida sahifa tashkil etilib, shu turdagi barcha loyihalarning jamoatchilik uchun ochiq ro'yxati yuritiladi.";

27) quyidagi mazmundagi **40⁴-band** bilan to'ldirilsin:

"40⁴. Deputatlar tomonidan loyihalarni tanlab olishda qo'yidagilar inobatga olinadi:

loyiha deputat saylangan tegishli saylov okrugi hududida joylashgan bo'lishi;

loyiha ovoz berish bosqichiga o'tgan hamda mazkur Nizom bilan belgilangan eng kam ovoz sonini to'plagan bo'lishi;

birgalikda moliyalashtirish amaliyoti doirasida ishtirok etib sherikchilik asosida loyiha amalga oshirilayotgan mahallaga tegishli loyiha bo'lmasligi.

Bunda, bir mahalladan ketma-ket ikki mavsumda deputat tashabbusi sifatida loyihalarni tanlab olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar tegishli mavsum doirasida qo'shimcha g'olib loyihalarni aniqlash bosqichi yakuniga qadar deputatlar tomonidan qo'shimcha g'oliblar aniqlanmasa (loyihalar tanlanmasa), deputatlar o'z vakolatidan foydalanmagan deb xisoblanadi hamda bu kelgusi mavsum(lar)da ushbu vakolatdan foydalanish huquqini bermaydi.";

28) 47-bandning ikkinchi xatboshidagi “Namunaviy” degan soʻz chiqarib tashlansin;

29) 52-band quyidagi mazmundagi **ikkinchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:

“Gʻolib deb topilgan loyihalar uchun nazarda tutilgan mablagʻlarni oʻtkazib berilishini asossiz tarzda kechiktirilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.”;

30) 64-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“64. Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan 2025-yilga qadar xarid qilingan avtotransport vositalariga vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan shablon boʻyicha maxsus belgi — stikerlar joylashtiriladi. Maxsus belgilari oʻrnatilmagan transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Ishchi komissiya har yili 25-yanvarga qadar mazkur Nizomning 8-ilovasida keltirilgan shaklda jamgʻarma mablagʻlari hisobidan xarid qilingan avtotransport vositalaridan foydalanishi yuzasidan hisobotni mahalliy hokimlikning rasmiy veb-sayti hamda Portal orqali jamoatchilikka eʼlon qilib boriladi.”;

31) 75-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“75. Tashabbusli budjet jarayonlari doirasida gʻolib deb topilgan qurilish-taʼmirlash bilan bogʻliq loyihalarni amalga oshirishda barcha turdagi buyurtmachi korxonalarning saqlash xarajatlari uchun toʻlovlar shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazining xulosasiga asosan aniqlangan loyiha yakuniy qiymatining uch foizidan ortmasligi lozim.

Bunda buyurtmachi korxonalarning saqlash xarajatlari uchun toʻlovlar dastlab boʻnak sifatida 50 foiz qismi, obʼekt foydalanishga topshirilgandan soʻng qolgan 50 foiz qismi toʻlab beriladi.”;

32) 97-band quyidagi mazmundagi **ikkinchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:

“Nazorat tadbirlari yakunlariga koʻra aniqlangan kamomad mablagʻlari toʻliq hajmda tegishli Jamgʻarmalarga qaytariladi.”;

33) 1-ilova quyidagi mazmundagi **4¹-bosqichi** bilan toʻldirilsin:

4 ¹ -bosqich	Tashabbus-korlar	Ovoz berish bosqichiga oʻtkazilgan loyihalarni targʻibot qilish bosqichi oʻtkaziladi.	Saralash bosqichi yakunlangan sanadan boshlab yetti kun davomida
-------------------------	------------------	---	--

34) 1-ilovaning 5-bosqichi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

5-bosqich	Ishchi komissiya	Jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni oʻtkaziladi.	Targʻibot bosqichi yakunlangan sanadan boshlab oʻn kun davomida
-----------	------------------	--	---

35) 1-ilova quyidagi mazmundagi **5¹-bosqichi** bilan to'ldirilsin:

5 ¹ -bosqich	Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi; Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputatlari	Qo'shimcha g'olib loyihalarni aniqlash bosqichi o'tkaziladi	Ovoz berish bosqichi yakunlangan sanadan boshlab o'n kun davomida
-------------------------	---	---	---

36) 2-ilovaning sarlavhasidan “shakllantirish” degan so'z chiqarib tashlansin;

37) 2-ilovaning 5 va 6-bandlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

5.	Lavozimiga ko'ra	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining moliyaviy masalalar bo'yicha o'rinbosari
6.	Lavozimiga ko'ra	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limlariga “Ochiq budjet” masalalari bo'yicha biriktirilgan mas'ul hodim (<i>Ishchi organ</i>)

38) 3-ilovaning 7-bandi chiqarib tashlansin;

sakkizinchi – yigirmanchi bandlari tegishincha **yettinchi – o'n to'qqizinchi bandlar** deb hisoblansin.

39) quyidagi mazmundagi **8-ilova** bilan to'ldirilsin:

Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda
moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomga
8-ILOVA

**Tashabbusli budjet jarayoni doirasida xarid qilingan transport vositalari
holati to'g'risida ma'lumot**

T/r	Loyiha mavsumi	Loyihaning (ID) raqami	Tashkilot	Avto rusumi	Davlat raqami	Holati	Bosib o'tgan jami masofa	
							Hisobot davri boshiga	Hisobot davri yakuniga
1.								
2.								
...								

**Tashabbusli budjet jarayoni doirasida loyihalarni sheriklik asosida birgalikda
moliyalashtirish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tashabbusli budjet jarayoni doirasida aholi va davlat budjeti mablag'lari hisobidan loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Aholi va davlat o'rtasida sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish (keyingi o'rinlarda birgalikda moliyalashtirish) – fuqarolar tomonidan **ijtimoiy ahamiyatga ega** masalalarni hal etish maqsadida loyihalarni aholi va budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirish shakli hisoblanadi.

3. Ushbu tartib Tashabbusli budjet jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

4. Birgalikda moliyalashtirish amaliyoti doirasida aholi tomonidan loyihaning **50 foizi** hamda budjet mablag'lari hisobidan qolgan **50 foiz** qismi moliyalashtiriladi.

Bunda istisno tariqasida "**Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla**" ro'yxatiga kirgan mahallalar (keyingi o'rinlarda alohida mahallalar) tomonidan loyiha qiymatining **25 foiz** qoplab berilsa, qolgan **75 foiz** budjet mablag'lari hisobidan ajratiladi.

Birgalikda moliyalashtirish uchun har yili **Davlat budjetida** tegishli mablag'lar rejalashtiriladi.

5. Aholi va davlat o'rtasida sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtiriladigan loyihalar (keyingi o'rinlarda **sherikchilik loyihalari**) jamoaviy foydalanishdagi infratuzilma obyektlariga (ichki yo'llar, ichimlik suvi ta'minoti, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, ko'cha yoritgichlari yo'nalishlari va shu kabilarga) oid bo'lishi lozim.

Barcha budjet tashkilotlariga sherikchilik loyihalarini amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. Bir mavsumda har bir mahallaga **faqat bitta loyihani** sherikchilik asosida amalga oshirishga ruxsat beriladi.

7. Birgalikda moliyalashtirish doirasida loyihalarni sherikchilik asosida amalga oshirish mutlaqo **ixtiyoriy hisoblanadi**. Majburiy ravishda fuqarolardan **pul mablag'larini undirish** yoki **pul to'plashga undash** taqiqlanadi va bunday harakatlar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

2-bob. Sherikchilik loyihalarini shakllantirish va saralash

8. Sherikchilik loyihalari fuqarolar tomonidan Tashabbusli budjet jarayonining tegishli mavsumi uchun loyiha kiritish bosqichi doirasida an'anaviy ravishda "Ochiq budjet" axborot portali (keyingi o'rinlarda Portal) orqali ilgari suriladi.

Bunda, fuqaro loyihani shakllantirishda Portalda "sherikchilik asosida moliyalashtirish" bandini tanlaydi.

9. "Sherikchilik asosida moliyalashtirish" bandi tanlangan loyihalar bo'yicha loyiha tashabbuskorlariga ommaviy oferta taqdim etiladi hamda fuqaro rozilik bildirgandan so'ng, loyiha "birgalikda moliyalashtirish"da ishtirok etish bo'yicha talabgor sifatida qayd etiladi.

10. "Birgalikda moliyalashtirish"da ishtirok etish bo'yicha ommaviy oferta ilovaga muvofiq taqdim etiladi.

11. Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha bir mahalladan bir nechta talabgorlar (loyihalar) kelib tushsa, ishchi komissiya tomonidan tegishli mahalla raisining tavsiyasi asosida bitta loyiha sherikchilik loyihasi sifatida ro'yxatga olinadi.

Mahalla raisining tavsiyasi asosida tanlab olinmagan loyihalar an'anaviy loyihalar sifatida ishtirok etadi.

12. Sherikchilik loyihalari "Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan mezonlarga muvofiq saralab olinadi.

13. Ishchi komissiya Portalda ro'yxatga olingan barcha sherikchilik loyihalarini ular kelib tushgan kundan boshlab tegishli buyurtmachilarga loyihani amalga oshirish texnik imkoniyatlari mavjudligi hamda qiymatiga aniqlik kiritish bo'yicha xulosa olish uchun yuboradi.

Buyurtmachilar tomonidan taqdim etilgan xulosalar asosida sherikchilik loyihalari keyingi bosqichga o'tkaziladi yoki rad etiladi.

14. Loyihalarni saralash bosqichida sherikchilik loyihalariga ustuvorlik beriladi hamda saralash bosqichida mazkur tartibning 13-bandiga muvofiq xulosalar mavjud bo'lgan hollarda ushbu loyihalarni muddatidan avval keyingi bosqichga o'tkazilishiga ruxsat beriladi.

15. Ishchi organ saralash bosqichidan o'tgan sherikchilik loyihalari bo'yicha bir kun muddatda:

tegishli mahalla uchun hokimlik qoshida budjetdan tashqari maxsus tranzit hisobraqam (keyingi o'rinlarda tranzit hisobraqam) ochadi hamda ushbu ma'lumotlarni Portalda loyihaning sahifasida aks ettiradi;

sherikchilik loyihalari keyingi bosqichga o'tganligi yuzasidan loyiha tashabbuskorlarini xabardor qiladi. Bunda, loyiha tashabbuskorlariga mablag'larni to'plash uchun ochilgan tranzit hisobraqam SMS xizmati orqali taqdim etiladi.

3-bob. Aholi tomonidan mablag'larni yo'naltirish

16. Tranzit hisobraqamga aholi tomonidan pul mablag'larini kirim qilish tegishli mavsum uchun ovoz berish bosqichi boshlangunga qadar davom etadi.

Agar ovoz berish bosqichi boshlangunga qadar tranzit hisobraqamda loyiha qiymatining 50 foiz (alohida mahallalar uchun 25 foiz) miqdorida mablag'lar to'planmasa ushbu loyihalar ovoz berish bosqichiga o'tkaziladi hamda keyinchalik kelib tushadigan mablag'lar loyihani sherikchilik asosida moliyalashtirish uchun inobatga olinmaydi.

17. Aholi tomonidan mablag'lar tegishli mahalla uchun ochilgan tranzit hisobraqamlarga to'lovchining ism-sharifi va JSHSHIR raqami ko'rsatilgan holda kirim qilinadi.

18. Tranzit hisobraqamga mablag'lar milliy valuta – so'mda, naqd yoki naqdsiz ko'rinishda qabul qilinishi mumkin.

19. Kirim qilingan mablag'larni Portalda loyiha sahifasida real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Tranzit hisobraqamga o'tkazilgan mablag'lar jismoniy yoki yuridik shaxs kesimida shaffof tarzda aks ettirib boriladi.

20. Sherikchilik loyihalari tegishli tranzit hisobraqamlarga loyiha qiymatining 50 foiz (alohida mahallalar uchun 25 foiz) qismini to'liq o'tkazilganligi vaqti bo'yicha ketma-ketlikda Portal tomonidan saralab boriladi.

21. Loyiha qiymatining tegishli qismini tranzit hisobraqamga to'liq o'tkazgan dastlabki loyihalar birgalikda moliyalashtirish uchun tegishli moliya yilida Davlat budjetida rejalashtirilgan mablag' doirasida Portal tomonidan avtomatik ravishda "g'oliblar" ro'yxatiga o'tkaziladi.

22. Tranzit hisobraqamda loyiha qiymatining 50 foizi (alohida mahallalar uchun 25 foizi)ga teng miqdorda mablag' to'play olmagan hamda joriy yil uchun birgalikda moliyalashtirishga ajratilgan mablag' yetarli bo'lmaganligi sababli g'oliblar ro'yxatiga kirmagan sherikchilik loyihalari an'anaviy Tashabbusli budjet jarayoni doirasida ovoz berish bosqichiga o'tkaziladi.

23. Tranzit hisobraqamlardagi to'plangan mablag'lar to'lov amalga oshirilgan shaxslarga quyidagi hollarda qaytariladi:

g'olib loyihalar ro'yxatiga kiritilgan sheriklik loyihalari bo'yicha loyiha qiymatining 50 foizidan (alohida mahallalar uchun 25 foiz) ortiq bo'lgan qismi;

joriy yil uchun birgalikda moliyalashtirishga ajratilgan mablag' yetarli bo'lmagani sababli g'oliblar ro'yxatiga kirmagan sherikchilik loyihalari uchun to'plangan mablag'larning to'liq qismi;

sheriklik loyihalarini moliyalashtirish uchun loyiha qiymatini tegishli qismini to'play olmagan loyihalar bo'yicha to'plangan mablag'larning to'liq qismini.

24. Har mavsum yakunlariga ko'ra, tranzit hisobraqamlardagi qoldiq mablag'larni qaytarib olish yuzasidan tegishli tashabbuskor fuqarolarga SMS xabarnomalar yuboriladi.

25. Loyiha qiymatining 50 foizi (alohida mahallalar uchun 25 foizi)dan ortiqcha to'plangan qismini fuqarolarga qaytarishda agar tranzit hisobraqamga mablag' o'tkazgan shaxslar soni ikki va undan ortiqni tashkil etsa, tranzit hisobraqamga mablag'larni kirim qilish vaqti bo'yicha so'nggi mablag' kirim qilgan shaxs(lar)ga qaytariladi.

Bunda, 23-bandga muvofiq mablag'larni qaytarib olish fuqarolarning tegishli tuman (shahar) hokimligiga yo'llagan arizasiga muvofiq, naqd va naqdsiz ko'rinishda qaytariladi.

26. Mahallalar uchun ochilgan tranzit hisobraqam tegishli mahalla aholisi tomonidan kelgusi mavsumlarda mablag' to'plash uchun foydalaniladi.

Bunda, ushbu hisobraqamlarda avvalgi mavsumlar uchun aholi tomonidan to'plangan mablag'larning qoldiq qismi yoki fuqarolar tomonidan qaytarib olinmagan mablag'lar kelgusi mavsumdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun qayta yo'naltirilishi mumkin.

4-bob. Sherikchilik loyihalarini moliyalashtirish

27. G'olib loyihalar ro'yxatiga kiritilgan har bir sheriklik loyihalari mablag'lari uchun "4017..." turdagi shaxsiy g'azna hisobraqami ochiladi.

28. "G'oliblar" ro'yxatiga kiritilgan sherikchilik loyihalari uchun tranzit hisobraqamda to'plangan mablag'lar loyiha ro'yxatga kirgan kundan boshlab bir kun muddatda tranzit hisobraqamlardan g'olib loyihalarni amalga oshirish uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobraqamga o'tkaziladi.

29. Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish uchun loyiha qiymatining qolgan 50 (alohida mahallalar uchun 75) foiz qismiga teng mablag'lar Davlat budjetida rejalashtirilgan mablag'lar hisobidan qoplab beriladi.

Bunda, ushbu mablag'lar sherikchilik loyihasini amalga oshirish uchun ochilgan hisobraqamga mavsum yakunlariga ko'ra tegishli hokimlik tomonidan o'tkazib beriladi.

30. Moliya yili davomida "birgalikda moliyalashtirish"da ishtirok etish istagini bildirgan mahallalar soni oshib ketgan hollarda sherikchilik loyihalarini moliyalashtirish uchun Davlat budjetida rejalashtirilgan mablag'larga aniqlik kiritilishi mumkin.

31. Agar mavsum (yil) yakunlariga ko'ra birgalikda moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' doirasida yetarlicha sherikchilik loyihalari aniqlanmasa,

foydalanilmagan mablag'lar an'anaviy tartibdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun tuman va shaharlarga qayta taqsimlanishi mumkin.

32. Sherikchilik loyihalarini amalga oshirishda buyurtmachi tashkilotni belgilash, Davlat xaridlarini amalga oshirish, nazorat tadbirlari hamda hisobdorlik amaldagi "Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

33. Loyiha uchun kirim qilingan mablag'lar va budjet hissasi faqatgina mazkur loyiha doirasida ko'zda tutilgan tadbirlarga sarflanadi.

34. Sherikchilik loyihalari doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilishida tegishli mahalla raisi hamda tashabbuskor fuqarolarning ishtiroki majburiy hisoblanadi.

35. Loyiha-smeta hujjatlari yoki ekspertiza xulosalariga muvofiq loyihaning yakuniy qiymati dastlabki qiymatiga nisbatan kamaysa, yakuniy qiymat hamda dastlabki qiymati o'rtasidagi ijobiy farq iqtisod qilingan mablag' hisoblanadi.

36. Iqtisod qilingan mablag'lar aholi va davlat budjeti hissasiga mutanosib ravishda teng miqdorlarda taqsimlanadi va buyurtmachi tomonidan:

50 (alohida mahallalar uchun 75) foiz qismi tegishli tuman (shahar) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga;

50 (alohida mahallalar uchun 25) foiz qismi tegishli loyiha uchun ochilgan tranzit hisobraqamga qaytariladi. Bunda, ushbu mablag'larni to'lovni amalga oshirgan shaxslarga qaytarilishi mazkur Nizomning 25-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

37. Agar loyihaning dastlabki qiymati va yakuniy qiymati o'rtasida manfiy tafovut yuzaga kelsa, ushbu tafovut loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha talab sifatida baholanadi.

38. Loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha talab quyidagi manbalar hisobidan qoplanadi:

50 (alohida mahallalar uchun 25) foiz qismi aholi mablag'larini tegishli tranzit hisobraqamga yo'naltirish orqali;

50 (alohida mahallalar uchun 75) foiz qismi tegishli tuman (shahar) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" hisobidan (aholi tomonidan qo'shimcha talabning tegishli qismi tranzit hisobraqamda to'plangan so'ng).

39. Agar qo'shimcha talabning tegishli qismi aholi tomonidan bir oy muddatda qoplanmasa, loyihani amalga oshirish uchun mablag' yetarli emas deb hisoblanadi hamda mazkur loyiha sherikchilik loyihalari ro'yxatidan chiqarilishiga sabab bo'ladi.

40. Loyihalarni amalga oshirish buyurtmachi hamda pudratchi korxona o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, qoida tariqasida shartnoma tuzilgan muddatdan boshlab ko'pi bilan besh oyda amalga oshiriladi.

5-bob. Loyihalarni qabul qilib olish hamda obyektlardan foydalanish

41. Sherikchilik loyihalari buyurtmachi tashkilotlar tomonidan tegishli loyiha tashabbuskorlari hamda mahalla raislari ishtirokida qabul qilib olinadi.

42. Sherikchilik loyihalari doirasida amalga oshirilgan hamda foydalanishga topshirilgan obyektlardan foydalanishda pul mablag'larini to'plashda ishtirok etmagan fuqarolarga nisbatan cheklovlar o'rnatilishiga (faqat ayrim guruh fuqaro yoki shaxslar tomonidan foydalanishiga) yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, amalga oshirilgan obyektlar bo'yicha pulli xizmatlar ko'rsatilishi yoki boshqa to'lovlar undirilishi taqiqlanadi.

6-bob. Nazorat, hisobdorlik, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va rag'batlantirish

43. Birgalikda moliyalashtirish doirasida to'plangan mablag'lar hamda ularning sarflanishi, amalga oshirilayotgan tadbirlar yuzasidan jamoatchilik nazorati "Ochiq budjet" portali orqali amalga oshiriladi.

44. Ishchi komissiya va ishchi organ mablag'larni maqsadli sarflanishi hamda hisobotlarni belgilangan muddatlarda jamoatchilikka taqdim etib borilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

45. Tuman (shahar) hokimligi tranzit hisobraqamlarda aholi tomonidan to'plangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflab yuborilmasligi hamda ularni belgilangan tartibda tegishli shaxslarga qaytarish uchun mas'ul hisoblanadi.

46. Mazkur Nizom talablari buzilgan holatlarda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

47. Har mavsum yakuni bo'yicha birgalikda moliyalashtirish doirasida amalga oshirilgan loyihalarda faollik ko'rsatgan tashabbuskor fuqarolar, mahalla raislari va homiylar mahalliy hokimliklar tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

Tashabbusli budget jarayoni doirasida
loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda
moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi
Nizomga
Ilova

OMMAVIY OFERTA

Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihani sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etish to'g'risida

Ushbu oferta Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq taqdim etiladi.

1. Oferta mazmuni:

Ushbu ofertani qabul qilish orqali "Ochiq budget" axborot portali orqali shakllantirilgan loyiha bo'yicha:

loyihani aholi va davlat budjeti mablag'lari hisobidan sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish bo'yicha ixtiyoriy ravishda ishtirok etish;

loyiha qiymatining belgilangan 50 foizigacha bo'lgan qismini o'z hisobidan tegishli tranzit hisob raqamga to'lash;

loyiha qiymatining belgilangan 50 foizigacha bo'lgan qismini shakllantirish uchun ixtiyoriy ravishda to'langan mablag'lar Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda qaytarilishiga rozilik bildirish;

Tashabbusli budget jarayoni doirasida loyihalarni sherikchilik asosida birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga amal qilish majburiyatini oladi.

2. Oferta shartlari:

Ushbu ofertaga rozilik "Ochiq budget" portalidagi loyiha sahifasidagi "roziman" tugmasini bosish orqali elektron tarzda tasdiqlanadi.

Rozilik bildirilganidan so'ng fuqaro "birgalikda moliyalashtirish"da ishtirok etuvchi sifatida qayd etiladi.

Mablag'larni to'lash tashabbuskor fuqaroning o'zi yoki uning vakili tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

3. Qo'shimcha ma'lumotlar:

Loyiha amalga oshirilgandan so'ng, undan barcha fuqarolar teng foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Pulli xizmatlar joriy etilishi yoki foydalanishda cheklovlar o'rnatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mablag'larning sarflanishi yuzasidan jamoatchilik nazorati "Ochiq budget" portali orqali amalga oshiriladi.